




BAXMAL TUMANI QADAMJO TURISTIK ZIYORATGOHLARI.

Ibragimov Oybek Norboy o'g'li

Toshkent shahar Ijtimoiy fanlar instituti ISFI magistranti email:
jekdespp38@gmail.com. jekdespp42@gmail.com. Tel.:88 523 4042

Ilmiy maslahatchi: Qo'lyiyev Ravshon Maxmanazarovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti o'qituvchisi

Ilmiy rahbar: Z.M. Jo'rayev

Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18627649>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 31-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 6-fevral 2026 yil
Nashr qilindi: 13-fevral 2026 yil

KEY WORDS

ABSTRACT

Baxmal tumani O'zbekistonning geografik markazida joylashgan bo'lib, uning tabiiy-madaniy landshafti qadimdan O'rta Osiyo sivilizatsiyasining rivojlanishida muhim rol tutishiga imkon bergan. Tumanda ko'pgina arxeologik va me'moriy yodgorliklar mavjud bo'lib, ulardan bir qismi bugungi kunda mahalliy aholi uchun ziyoratgoh vazifasini bajaradi.

Kirish

Bu maskanlar aksariyat hollarda xalq orasida shifo, baraka va madaniy qadriyat sifatida qadrlanadi. Hududdagi ziyoratgohlar haqida xalq orasida qadimdan rivoyat va afsonalar ko'p bo'lsa ham ularning tarixiy ildizlari har doim ham yozma manbalarda to'liq qayd etilmagan.

Baxmal tumani turizm zonasiga aylantirilayotganligi sababli, bu hududdagi tarixiy me'moriy yodgorliklarni ilmiy jihatdan o'rganishga ehtiyoj tug'ilmoqda.

Metodologiya

Maqolani yozishda sivilizatsion, tarixiy-qiyosiy, madaniy-ma'naviy jarayonlarni o'rganishda esa madaniy-tarixiy va ma'naviy tahlil asos qilib olindi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotda xolislik, haqqoniylik, ilmiylik, tizimlilik, tarixiylik va dala tadqiqotlari usullaridan foydalanilgan.



Novqa ota ziyoratgohi – Novqa ota ziyoratgohi va masjid binosi XVIII asrga oid bo'lib, "Baxmal" MFY, Novqa qishlog'ida joylashgan. Bugungi kunda Jizzax viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida "Vaqf" xayriya jamoat fondiga tekin foydalanish shartnomasi asosida birlashtirilgan. "Novqa ota" ziyoratgohi

toponomiyasiga to'xtaladigan bo'sak uning "Novqa ota" deb nomlanishi ko'proq "Naq'atun" (arabcha) - ya'ni "tuya" ma'nosi bilan bog'lanadi. Ilmiy adabiyotlarda juda ko'p bor duch kelganimiz Naukat, Nauqat, Navqand, Navqad (Navqadiy) atamaları ham aynan shu zaminga taalluqli. Bizningcha ham ana shu atama zamiridan ma'no axtarmoq to'g'riday - "yashil joy", "yashnagan manzil".

Xalq orasida tarqalgan og'zaki rivoyatga qaraganda, olis Balx shahrida ahil-inoq, xushchaqchaq, obodlik va ozodlikka o'rgangan shahar ahli odil-u dono hukmdorning yakka-yu yagona qizi bo'lib, bir kuni sayilda qiz suvga barmog'ini botirib yalab ko'ribdi-yu beparvo noziklik ila bog' saylini davom ettiribdi. Bu sayr qizning ham, joriya-yu kanizlarining ham yodidan ko'tarilgan asnoda, oradan olti oylar muddat o'tib ma'lum bo'lsaki, qizning bo'yida homila paydo bo'lgan emish?.. Enagalar ham, bu sirdan voqif bo'lganlar ham hayratda. Bu gap hukmdorning qulog'iga yetib borib, g'azab ustida o'z qizini osib o'ldirishga amr etibdi. Hukmdorning dono vazirlaridan biri amringizni qaytarib oling. Zero, bu gunohi tahqirda ko'zingizning oqu qarosi bo'lmish yakka-yu yagona dilbandingizning qanchalik aybdor ekanligini aniqlamay turib bundayin og'ir jazoga giriftor etmoqlik sizdayin dono hukmdorga munosib emas va hukmini qizni mamlakatdan badarg'a etish bilan almashtiribdi.

Aybsiz aybdor qizni bir nortuyaga mindirib "peshonangga yozilganini ko'rarsan" deb shahar darvozasidan chiqarib yuboribdilar. Sho'rlik ojiza yo'l erkini tuyaga topshirib boshi oqqan tomonga ravona bo'libdi. Uch oy yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Alqissa, uch oy yo'l yurib Baxmal degan purvikor tog'lar oralig'idagi yashil bir manzilga yetib kelganda uni to'lg'oq tuta boshlabdi. Tuya jonivor ham uning holatini sezib yerga cho'ka solib qizni yelkasidan tushuribdi. Sal o'tmayoq uzoq yo'lning azoblari tinka madorini quritgan tuya qizning holiga zor-u nolon, ammo noilojligidan bo'zlab-bo'zlab jon taslim qilgan ekan.

Tuyaning tanasi yotgan joyida bir uyum tuproqqa aylanib qolibdi. Oradan ko'p o'tmay qizning ko'zi yoribdi, o'zini va go'dagini poklab olmoq niyatida chaqalog'ini tug'ilgan joyida qoldirib, sarosar suv izlabdi, ammo topolmabdi. Izlab- izlab ne bir umidsiz holatda bolasini qoldirgan joyiga qaytib kelsa, go'dakkinasi bir sizot suvning orasida yotgan emish. Chaqaloqning barmoqlari timdalagan toshlarning orasi yorilib barmoq izlariga o'xshash yoriqlar paydo bo'lib, bu yoriqlardan tiniq, zilol suvlar sizib chiqayotgan emish.

Bir kuni sahar payti g'oyibdan ovoz kelib «Ey, Ona! Qo'lingdagi bolangni suvga tashla!» deya amr qilibdi. Oyoqchalarini suvga tekkazgani on, u baliqqa aylanibdi va suzib ketibdi. Ayolni esa sal o'tmay samodan tushgan farishtalar o'zlari bilan Arshi a'loga uchib ketishibdi. Shu joyni "Novqa ota" deb ortidan kelgan tog'asining nomiga berilgan ekan.¹

Go'zal Baxmal tumani hududidagi Novqa qishlog'ida joylashgan «Novqa ota» ziyoratgohi haqida ana shunday g'aroyib rivoyat bor. O'tgan asrning 70 yillariga qadar qishloq hududida «Norcho'kdi» degan joy nomi bor.

Baxmallik o'lkashunos Sayyid Azimning «Baxmalnoma» ("Sangzor" nashriyoti. Jizzax 2001.) kitobida shunday so'zlar bor: "Ustrushona davlati tarkibidagi shaharlarning biri hozirgi Novqa bulog'i atrofida bo'lgan. Shahar "Nauqat" deb atalgan... Bu shahar So'g'ddan Shoshga o'tadigan yozgi karvon yo'li yoqasida joylashgan... Nauqat shahri eramizning XI asrida O'rta Osiyoni mo'g'illar bosib olganidan keyin buzilib ketgan... XIV-XV asrlarda hayot birmuncha tiklansada Nauqat shahri qayta shahar bo'lib qad rostlay olmagan...»

«Darvish nishon Do'stim sulton ibn Mahmud sulton ibn Sulaymon sulton Miyonqolning hamma sipohi bilan olib Navqo mavze'ida tursinlar va kecha-yu kunduz qorovullar qo'yib, dushman tomonidan xabardor bo'lsinlar, toki xalqqa va viloyatning tevarak- atrofiga bironta zarar yetkazilmasin.»²

Arxeolog Muxtor Pardaevning tadqiqotlarida "Novqa ota" ziyoratgohining shimoliy-g'arbiy qismida, soyning chap qirg'og'ida joylashgan VI-VIII asrlarga oid Navkat arxeologiya

¹ Shayx Parda Hamid og'a Burgutli. Sangzor. Jizzax -2004y 3-7 bet

² Shayx Parda Hamid og'a Burgutli -Sangzor Jizzax 2004y 8-11 bet

yodgorligi haqidagi fikrlar mavjud. Tadqiqotchining fikricha, "Navkat" so'g'dcha atama bo'lib, "Nav" yangi, "kat", "ket", "kent" — "qishloq", "qo'rg'on" ma'nosini anglatgan. Demak, "Novqa" so'zi aslida Navkat, Navket, Navkent atamasidan hosil bo'lib, Yangikent, Yangiqishloq, Yangiqo'rg'on ma'nolarini anglatishini ta'kidlaydi.³

Novqa ota bugungi kunda xalq orasida juda mashhur suvi turli kasaliklarga davo bo'lishi haqida afsonalar mavjud. Ziyoratgohni yangi turmush qurayotgan kelin va kuyovlar ham to'y kuni kelib ziyorat qilib ketishadi. Bu yerda noyob turdagi baliqlar mavjud. Sodda aholi maqbaradagi toshlar ilohiyligi hamda bazi bir toshlarga odamlar tomonidan sig'inib ketishligi, ishining yurishib ketishiga ishonadilar.



O'smat ota ziyoratgohi – O'smat ota (Boybo'ltepa-1) V — VII asrlarga oid bo'lib, "O'smat" MFY, Sh. Rashidov ko'chasida joylashgan. Bugungi kunda Jizzax viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida "Vaqq" xayriya jamoat fondiga tekin foydalanish shartnomasi asosida birlashtirilgan.

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori o'rinbosari Otabek Muhammadiyevning ta'kidlashicha, O'smat ota ziyoratgohining paydo bo'lishi shu hududdan yetishib chiqqan o'z davrining mashhur muhaddisi, fiqh olimi va mutakallimi Muhammad ibn Abdulhamid Usmandiy Samarqandiy nomi bilan bog'liq.

Manbalarda u zot 1095 yili Samarqand qishloqlaridan biri – Usmandda tug'ilib, 1157 yili 64 yoshida hozirgi ziyoratgoh joylashgan yerda vafot etgani aytiladi. "Usmand" atamasi vaqt o'tishi bilan tovush o'zgarishi natijasida "Usmat"ga, keyinchalik esa "O'smat"ga aylangan.⁴

Xonaqoh 2000-yili O'smatlik Alishoyev Davir Islom o'g'li va shu paytlarda Baxmal tumani hokimi bo'lib ishlagan Musa Anarboyevning sa'yi harakatlari bilan urgutlik usta Abduljabbor o'g'li Abduljalil va uning o'g'illari, hamda jiyanlari tomonidan 72 kunda qayta tiklangan.

"O'smat ota" ziyoratgohi Baxmal tumanining markazida, bahavo tog' buloqlari qurshovida joylashgan bo'lib, yer maydoni 0,42 gektarni tashkil etadi. Ushbu maskan ayni paytda rekreatsion – hordiq, ziyorat maqsadlarida foydalanilmoqda.⁵

O'smat ota hozirgi vaqtda juda gavjum holatda emas ammo ziyorat qilib ketguchilar bor. Bino arxitekturaviy holati jihatdan qayta tamir talab bo'lib qolgan. 2000 yilgi qayta ta'mirlanish jarayoni ilmiy jihatdan asoslanmagan holda olib borilganligi sababli ziyoratgohning tarixiyligi yo'qolgan.


Aholi orasida ziyoratgohlarning har birini o'zini qanaqadir mo'jizalari bilan shifo bo'lishligi, mo'jizaviy buloqlar, tuproqlariga surkash va turli xil irim sirimlar qilishlik bor va O'smat ota ziyoratgohi ham bundan mustasno emas. O'smat otada ham xalq orasida turli irim sirimlarni amalga oshirsa kasal inson sog'ayib ketishi va suvidan ichsa tuzalishligini haqida afsonalar mavjud.

³ <https://jizzaxnews.uz/jizzax/nov-a-ota-tuya-chukkalagan-ziyoratgo/>

⁴ <https://telegra.ph/OSMAT-OTA-ZIYORATGOHI-09-03?ysclid=mlj4aoidvj376301714>

⁵ Og'a Burgutli. Jizzax viloyati ziyoratgohlari. – T.: "Fan", 2008 y.

Said Mirxalilloh xonaqosi va masjidi – Said Mirxalilloh xonaqosi, masjidi XV asrga oid



bo'lib, "Baxmal" MFY, Bog'imozor qishlog'ida joylashgan. Hozirgi vaqtda Jizzax viloyati madaniyat boshqarmasi operativ boshqaruv huquqi asosida "Vaql" xayriya jamoat fondiga tekin foydalanish shartnomasi asosida biriktirilgan

Yodgorlik Baxmal tumanining Bog'imozor mo'g'ol qishlog'iga yaqinida joylashgan bo'lib, ziyoratgoh asosini ikki tup qadimiy chinor daraxti, Sohibqiron Amir Temur tomonidan Sayyid Mir Halilullohning qabri uchun tayyorlatgan qabr toshi va qadimiy xonaqoh hamda shifobaxsh buloq tashkil etadi. Akademik Yahyo G'ulomovning tadqiqotlarida ma'lumotlar keltirilgan. "Novqaning sharqiy tarafida, undan 4 kilometr masofada joylashgan Bog'i Mozor qishlog'i (Mo'g'al deb ham ataladi) XV-XVI asrlarda "Ganji Alisher" deb atalgan bo'lishi mumkin. Bog'i Mozorda katta xonaqohning qoldiqlari bor. Shunga qaraganda bu qishloq qadimdan ziyoratgoh joylardan biri bo'lgan" deb taxmin qilish mumkin.

Sayyid Azimning "Baxmalnoma" kitobida keltirilgan hikoyada ushbu ziyoratgohni Sohibqiron Amir Temurning piri Sayyid Mir Barakaning ukasi Sayyid Mir Halilulloh qo'nim topgan joy sifatida ta'riflaydi. "Bog'imozor ota" (Sayyid Mir Halilulloh) ziyoratgohi 2001 yilda xalqning xayr-ehsonlari evaziga qayta ta'mirlangan, 2003 yilda akademik Mirzakarim Norbekov homiyligida xonaqoh qayta tiklanib obod maskanga aylantirilgan.⁶

Hozirgi kunda ham ziyoratchilar dam olishlari va marosim o'tkazishlari uchun qulaylik yaratish maqsadida qurilish ishlari davom etmoqda. Bugungi kunda bu yerga viloyat aholisidan tashqari, respublikamizning Xorazm, Buxoro, Samarqand, Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridan ko'plab ziyoratchilar tashrif buyuradi.

Sa'd Ibn Abu Vaqqos ziyoratgohi

Masjid binosi XIX asrda jizzaxlik o'z davrining mohir binokorlari – usta Komil, usta Qobil, usta Zuhur va usta Mirziyolar tomonidan bunyod etilgan. U sharqona uslubda bunyod etilganligi bilan har qanday ziyoratchining e'tiborini tortadi. Binodagi ganchkorlik ishlari o'ta mahorat bilan bajarilgan. Uning shiftidagi rango-rang naqshlar bir paytlar mohir naqqosh sifatida dong taratgan Mirzo Zoid va usta Bobojonlar haqiqatdan ham o'z kasbining mohirlari bo'lganligidan dalolat beradi. Ulkan mehnat va yuksak mahorat mahsuli bo'lgan naqshlar bizning kunlarimizgacha ham o'z jozibadorligini yo'qotmagan.

⁶ Sayyid Azimning «Baxmalnoma», "Sangzor" nashriyoti. Jizzax -2001.

Sa'd Ibn Vaqqos Makka ashroflaridan birining o'g'li bo'lib, payg'ambarimiz Muhammad (S.A.V)ga payg'ambarlik vahiyi kelgan paytda navqiron bir yigit bo'lib, u islom diniga kiradi va sarkardalik xislatlarini namoyish qiladi.

U hijratning o'n oltinchi yili Xalifa Umar ibn Xattobning Eron va Movarounnahrda yuborgan qo'shiniga yo'l boshchi etib tayinlanadi. Hozirgi Avliyo qishlog'i yaqinida bo'lib o'tgan jangda yaralanib, sinchilog'i uzilib tushadi, natijada xonaqoh o'rniga qoni to'kiladi. Sarkardaning sinchilog'ini qishloqning shimol tarafidagi qabristonga dafn etiladi (bu yerda chog'roq xonaqoh bor), tabarruk zotning qoni tomgan ko'l bo'yidagi yaqin joyda ham xonaqoh barpo qilingan.

Bo'lib o'tgan voqea Sa'd ibn Abu Vaqqos (roziyallohu anhu) sog'lig'iga ko'p ta'sir etmaydi, u keyinchalik Arabistonga qaytib ketib, uzoq umr ko'radi. Naroniylik davrida u davlandmand sifatida umr kechiradi. Lekin vafotiga yaqin yillarda jundan to'qilgan chakmonini keltirib berishlarini iltimos qiladi. Chakmonini keltirishganda: "Meni shu bilan kafanlanglar, chunki men bu chakmon bilan Badr jangida mushriklarga qarshi jang qilgan edim. Janobi Haq huzuriga ham men shu chakmonimda borishni istayman..." ("Munjid" va "Sahobalar hayoti" kitoblaridan).⁷

Bu hudud XX asrda yani 1920- yilgacha Samarqand bekligiga qaragan Baxmal va G'allorol hududi bitta hudud hisoblangan.



Aynan bu hududlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ushbu bir manzil ostida bo'lgan ziyoratgohlar tarixiy jihatidan bir birilariga uzviy aloqalari bo'lgan. Hududiy jihatdan aynan har birini oldida shifobaxsh suv paydo bo'lgani va har bir buyuk zotlarning o'chmas iz qoldirganligi ayon bo'lmoqda.⁸

Xulosa

Yuqorida sanab o'tgan ziyoratgohlar bugungi kunda turistik zonaga aylanishi va bu joylar doimiy ziyorat qilinib turishligi, xuddi shunday ziyoratgohlarning obod bo'lishiga hamda davlatimiz Rahbari tomonidan olg'a surilayotgan ichki turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan

tashqari aholi tomonidan o'z tarixiga qiziqishning kuchayishiga va tarixni chuqur o'rganilishiga sabab bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Shayx Parda Hamid og'a Burgutli. Sangzor. Jizzax- 2004
2. Sayyid Azimning «Baxmalnoma», "Sangzor" nashriyoti. Jizzax -2001.
3. Og'a Burgutli. Jizzax viloyati ziyoratgohlari. – T.: "Fan", 2008 y.
4. Axmedov I., A.A.Allabergenov "Turizm faoliyatini tashkil etish" .:T. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati".-2004.
5. <https://telegra.ph/OSMAT-OTA-ZIYORATGOHI-09-03?ysclid=mlj4aoidvj376>
6. www.jizzax.uz Sa'd Ibn Abu Vaqqos ziyoratgohi
7. <https://jizzaxnews.uz/jizzax/nov-a-ota-tuya-chukkalagan-ziyoratgo/>

⁷. www.jizzax.uz Sa'd Ibn Abu Vaqqos ziyoratgohi

⁸ Axmedov I., A.A.Allabergenov "Turizm faoliyatini tashkil etish" .:T. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati".-2004.